



XITOY TILSHUNOSLIGI

Islomova Madinabonu

ADCHTI, IFOMT fakulteti Xitoy tili filologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi.

*Ilmiy rahbar: **Kabulova U.***

Annotatsiya: Xitoy tilshunosligi- xitoy tili (mandarin va boshqa sino-tibet tillari)ning tuzilishi, rivoji, fonetikasi, grammatikasi va tarixiy o'zgarishlarini o'rganadigan fan. Xitoy tilshunosligi dunyodagi eng qadimiy ilmiy an'analardan biridir.

Tayanch so'zlar: Mandarin tili, iyeroglif, xitoy tili fonetikasi.

Аннотация: Китайское языкознание - это наука, изучающая строение, развитие, фонетику, грамматику и исторические изменения китайского языка (мандаринского и других сино-тибетских языков). Китайское языкознание считается одной из самых древних научных традиций в мире.

Ключевые слова: Мандаринский язык, иероглифы и китайская фонетика.

Absbtract: Chinese linguistics is a field that studies the structure, development, phonetics, grammar, and historical changes of the Chinese language (Mandarin and other Sino-Tibetan languages). Chinese linguistics is one of the oldest scholarly traditions in the world.

Key words: Mandarin language, hieroglyphs, and Chinese phonetics.

Qadimgi Xitoy tilshunosligida yozma manbalar alohida ahamiyatga ega bo'lgan.

Bizning kunlarimizgacha yetib kelgan Xitoy yozuvining eng qadimiy yozma yodgorliklari eramizgacha bo'lgan XIII-XI asrlarga borib taqaladi. Ushbu yozma yodgorliklar hayvon (qo'y) suyaklari va toshbaqa qalqonlari bo'lib, ularda fol ochish jarayoni haqida ma'lumot beriladi.



Bu qadimgi «manbalar» Xitoy tilshunosligi tarixida va taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Fikr yuritilgan davrlardayoq Xitoy ieroglifi muayyan so'z sifatida, so'zni anglatuvchi, ifodalovchi sifatida xizmat qilgan, ya'ni Xitoy ieroglifi logogramma hisoblangan. Xitoy madaniy taraqqiyotiga hind madaniyatining ta'siri natijasida, ya'ni Xitoyga Hindistondan buddizmning kirib kelishi sababli - hind tilshunosligining ta'siri bilan Xitoy tilshunoslari ona tillarining fonetik-prosodemik hodisasi – intonatsiyaning to'rtta turini, ko'rinishini ishlab chiqdilar.

Xitoy tilshunoslari tomonidan, ayniqsa, xan davrida (bizning eramizgacha bo'lgan 206 yil- bizning eramizning 220 yil) leksikologiya, leksikografiya, ieroglifika, fonetika, grammatika va dialektologiya masalalariga katta e'tibor berilgan. Ushbu davrning eng buyuk tilshunosi Syuy Shen «Elementlar va murakkab belgilar haqida» asari bilan yozuv nazariyasining asoslarini yaratdi. Bu manba Xitoy tilshunosligida shu kunlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Xitoy tilshunosligi, ayniqsa, XVII - XIX asrlarda keng quloch yoydi. Bu davrlarda tarixiy fonetika, etimologiya va sintaksisga (sintagmaga) oid faktlar ustida ish olib borildi. Shuningdek, tanqidiy matnshunoslik taraqqiy qildi. Xitoy tilshunosligi taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan ota bola Van Nyan - Sun (1744-1832) va Van In-Chji (1766-1834) Xitoy grammatikasining asoschilari sifatida tan olinadi. Xitoy tilshunoslari so'z masalasida mustaqil so'zlarni va yordamchi so'zlarni farqlaganlar.

Mustaqil so'zlarni ot, sifat va fe'l turkumiga ajratganlar. Yangi davr tilshunosligining yirik vakili tadqiqotchi Chjan Bin-Lin (1869-1936) bo'lib, u Xitoy tilining me'yoriy va tarixiy fonetikasi, dialektologiyasi masalalarini ishlab chiqdi. Shuningdek, u fonetik yozuv loyihasini ham tuzdi. Umuman olganda, Xitoy tilshunosligining asosiy yo'nalishi, ayniqsa, o'rta asrlarda fonetika (yoki fonologiya) hisoblangan. Xitoy yozuvi-ideografik yozuv bo'lib, har bir belgi so'zga yoki o'zakka muvofiq keladi.

Fonetik jihatdan esa har bir belgi bo'g'inga to'g'ri keladi. Aslida amaliy jihatdan barcha o'zaklar bir bo'g'inlidir. XVII-XVIII asrlarda Xitoyda tarixiy fonetika katta



muvaffaqiyatlarga erishdi. Agar Xitoyda tasviriy fonetika poetika bilan bog'langan bo'lsa, tarixiy fonetika qadimgi matnlarni sharhlashda yuzaga kelgan ayrim masalalarga javob berish bilan shug'ullandi.

Xitoy tili tarixiy fonetikasining yaratilishi Xitoy klassik tilshunosligining qo'lga kiritgan muhim yutug'i hisoblanadi. Bu jahon tilshunosligi fanida dastlabki yo'nalish sifatida butunlay tarixiylik prinsipiga asoslangan bo'lib, o'z oldiga bevosita kuzatishda berilmagan tilning o'tmish «shakli», holati bilan bog'liq hodisalarni, faktlarni tiklash maqsadini qo'yadi. Ayni jarayonning metodlaridan va qo'lga kiritgan natijalari, yutuqlaridan hozirgi kunlarda ham foydalanilmoqda.

Xitoy tilshunosligining ilk manbalari:

"Shuowen Jiezi" (說文解字) - milodiy 121-yilda Xu Shen tomonidan yaratilgan. Bu dunyodagi birinchi etimologik lug'at bo'lib, iyerogliflarning ma'nosi va tuzilishini tahlil qiladi.

“Erya” (爾雅) -eng qadimgi izohli lug'atlardan biri.

"Shijing" va "Shujing" asarlari- fonetika va qadimgi talaffuz haqida muhim ma'lumotlar beradi. Xitoy tili tonal til bo'lib, mandarin tilida 4 ta asosiy ton mavjud. Ton o'zgarishi butunlay boshqa ma'no hosil qiladi: mā-ona, má-kanop, mǎ-ot, mà-so'kmoq.

Tonal tizim tilshunoslar uchun alohida tadqiqot obyekti hisoblanadi. Xitoy yozuvi logografik bo'lib, har bir belgi: ma'no, talaffuz, grammatik funksiyahaqida ma'lum darajada axborot beradi. Iyerogliflar piktogramma, ideogramma, fonosemantik va boshqa turlarga bo'linadi. Xitoy tili analitik til bo'lib Xitoy tili analitik til bo'lib: so'z o'zgarmaydi, qo'shimcha olmaydi, grammatik ma'no tartib, yordamchi so'zlar yoki ton bilan ifodalanadi. Masalan: le-bajarilganlik, guo-tajriba, zài-davomlilik.

Xitoy grammatikasining muhim jihatlari: fe'l zamon bilan o'zgarmaydi, ko'plik ko'rsatkichlari kam yordamchi so'zlar juda muhim, so'z tartibi qat'iy.



Masalan: men - ko'plik qo'shimchasi, de - egalik yoki sifatlovchi ko'rsatkich.

Xitoy tilshunosligining ahamiyati:

1.Madaniy merosni o'rganish

Xitoy sivilizatsiyasi 5000 yillik tarixga ega va uning asosiy hujjatlari xitoy tilida

yozilgan.

2.Diplomatiya va xalqaro aloqalar

Xitoy bugun iqtisodiy va siyosiy jihatdan dunyoda yetakchi davlatlardan biri bo'lib,

tilni bilish katta imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy tilshunoslik, Rasulov R.-Toshkent, Oltin kitob, 2022, 28-29-betlar.
- 2.Umumiy tilshunoslik, Musayev A.-Toshkent.
- 3.arziv.uz-Xitoy tilshunosligi.